



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil "14" dekabr

BUYRUQ № 86

Toshkent sh.

**“Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom”ni
tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796- son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” 33.3- bandi ijrosini ta'minlash, shuningdek, turizm yordamchi hisobi bo'yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 30- sentabrdagi “Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to'g'risidagi 41- sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov